

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SAYLOV TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldoshev Axmad

Toshkent davlat yuridik universiteti

XHQH – Fakulteti 1- kurs talabasi

ahmadyuldashev001@icloud.com

+998-95 222 24 00

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20485193>

Annotatsiya: Ushbu maqolada saylov tizimining mamlakatimizdagi o'rni va ahamiyati, uning istiqbolli islohotlari, demokratik saylovlar hokimiyatning boshqaruv sohasidagi masalalarni kuch bilan hal etishning mutlaqo aksi ekanligi, saylov jarayonlari demokratiyaning asosiy tarkibiy elementi ekanligi, qolaversa, davlat rahbari hamda boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini lavozimiga saylash, fuqarolarni saylash va saylanish huquqlarini Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanganligi to'grisida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, normativ-huquqiyhujjatlarimizga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar, fuqarolarning saylov huquqi, saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari, saylov tizimi turlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy saylov kommissiyasi, saylov tizimi, majoritar saylovtizimi, proporsional saylov tizimi, saylov uchastkalari, referendum, ko'pchilik ovozi.

Абстрактный: В статье изложены сведения о роли и значении избирательной системы в демократическом обществе, ее перспективных реформах, о том, что демократические выборы являются прямой противоположностью власти решать вопросы в сфере управления силовым путем, о том, что избирательные процессы являются ключевым структурным элементом демократии, о том, что Конституция и законы гарантируют право граждан избирать и быть избранными на должности, а также право граждан избирать и быть избранными. Анализируются изменения и дополнения, внесенные в наши нормативные правовые акты, право граждан на голосование, основные принципы проведения выборов, виды избирательных систем.

Ключевые слова: Центральная избирательная комиссия, избирательная система, мажоритарная избирательная система, пропорциональная избирательная система, избирательные участки, референдум, большинство голосов.

Abstract: This article presents information on the role and importance of the electoral system in a democratic society, its prospective reforms, the fact that democratic elections are the exact opposite of the power to resolve issues in the field of governance by force, that electoral processes are a key structural element of democracy, and that the Constitution and laws guarantee the right of citizens to elect and be elected to office, as well as the right of citizens to vote and be elected. It also analyzes the amendments and additions made to our regulatory legal documents, the right of citizens to vote, the basic principles of holding elections, and the types of electoral systems.

Key words: Central Election Commission, electoral system, majoritar election system, proportional representation system, polling stations, referendum, majority voice.

Kirish

Saylov tizimi - bu siyosiy hokimiyatning davlat vakillik organlarining qonuniy shakllanishini ta'minlaydigan va tartibga soluvchi qoidalar, texnikalar va jarayonlar to'plami.

Saylov zamonaviy demokratiyaning eng muhim instituti xalq irodasining ifodalanishi, siyosiy jarayonda bevosita ishtirok etishining asosiy shakllaridan biri, shu bilan birga, vakillik organlari tashkil topishi va bir necha oliy mansablarni (masalan, prezident) band etish usulidir.

Saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o‘rin egallab kelgan. Aynan mazkur institut orqali fuqarolar bevosita yoki o‘zlari saylagan vakillari timsolida davlat va jamiyatni boshqarish imkoniga ega. Saylov demokratiyaning yorqin ifodasidir: «Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o‘zaro birlashib ketgan. Saylov — demokratiya degani. Demokratiya — bu saylov degani»¹.

Saylov tizimini tanlash ko‘plab omillarga bog‘liq: mamlakat ichidagi siyosiy kuchlarning nisbati, davlatdagi boshqaruv shakli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va boshqalar. Har bir mamlakatda saylov tizimi mamlakat Konstitutsiyasida belgilangan ushbu tizimga oid asosiy qoidalarni batafsil bayon etgan Qonunchilik asosida shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida nomzodlarni ko‘rsatish tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar, ovoz berish va ovozlarni sanash tartibi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek moliyalashtirish manbalari to‘g‘risidagi qoidalar aks ettirilgan.

Saylov mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Har bir saylovchining saylagan ovozi zamirida mamlakatning ertangi kuni, avlodlar kelajagi va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy haq-huquqlari mujassam bo‘ladi. Shu sababli, bugungi kunda saylov qonunchiligi qadriyatlarimiz va davlatchilik tariximiz asosida, fuqarolarning siyosiy huquq, erkinligi, manfaatlarini ta‘minlash, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan tamoyillari va rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Saylov, keng ma‘noda, demokratiyani qaror toptirishning, davlat xokimiyati idoralarini shakllantirishning, ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishning ta‘sirchan vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Demokratiya” va “saylov” tushunchalari uzviy bog‘liq siyosiy, huquqiy va ilmiy tushunchalar hisoblanadi.

Yurtimizda o‘tkazilayotgan turli xil saylovlarsiz demokratik jarayonlarni tasavvur qilishimiz qiyin. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadilar. Ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashqil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolarning davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etishdagi ishtiroki, asosan, saylovlarda namoyon bo‘ladi.

Demokratik davlat qurish - bu yurtimizdagi eng yuqori maqsadlardan biri hisoblanadi. Va shuning uchun ham bunga turli xil yo‘llar bilan, xalqning sharoitini yaxshilash ularga imkoniyatlar berish uchun juda ko‘p islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularga misol qilib ham saylov tizimini bemalol keltirishimiz mumkin. Va bunga davlatimiz birinchi prezidenti ham o‘z fikrini berib o‘tgan: «Demokratiya hamma joyda bir xil. Uning umumiy tamoyillari hamma uchun tushunarli: bu — demokratiyaning ajralmas qismi bo‘lgan xalq hokimiyati, xalqning xohish-irodasi va ochiq, erkin saylovlardir. Bu oxir-oqibatda har qanday demokratiyaning eng yuqori pog‘onasi bo‘lgan fuqarolik jamiyatidir»².

¹ Karimov I.A. Parlament - jamiyat hayotining ko‘zgusi. // O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. To‘piam. - T.: « O‘zbekiston», 2005. 13-bet.

² 2 Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat‘iy irodamizga bog‘liq. T.12. - T.: « O‘zbekiston», 2004. 163-bet.

Material va Metodlar

Ushbu ilmiy maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy – huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan. Va saylov tizimiga bag‘ishlangan bir necha qonunlarning o‘z kuchini yo‘qotishi va saylov kodeksining ishlab chiqilishi va ularning sabablari tahlil qilingan, hamda, saylovlarning turlariga ham bafurcha ta’rif berib o‘tilgan.

Muhokama va Natijalar

Saylov huquqi dunyodagi muhim bo‘lgan konstitutsiyaviy-siyosiy huquqlardan biri bo‘lib, u saylovchilarga davlat hokimiyati organlariga o‘zlari istagan vakillarni saylash imkoniyatini beradi. Avvalombor, saylov huquqi o‘zi nima? Degan savolga biz saylovlarni o‘tkazish tartibini tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar va normalar, shuningdek, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovlari paytida yuzaga keladigan eng muhim ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarda Konstitutsiya saylov qonunchiligining poydevori hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham saylov qonunchiligining mustahkam huquqiy negizidir. Saylov tizimining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligi hujjatlarida belgilangan bo‘lib, birinchidan, saylov jarayonlarining demokratik tamoyillar asosida adolatli, xolisona, ochiq va oshkora o‘tkazilishiga xizmat qiladi, ikkinchidan, saylov jarayonlarining faol ishtirokchisi hisoblangan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini kafolatlaydi, uchinchidan, saylov jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining, jumladan, siyosiy partiyalarning dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning alohida XXII bobi saylov tizimi deb nomlangan. O‘zbekiston Konstitutsiyasida Saylov tizimi konstitutsiyaviy asosda belgilanishi bu huquqiy institutning ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyaning saylov tizimi bobi ikkita, ya’ni 128- va 129-moddadan iborat bo‘lib, u fuqarolarning saylov huquqini, saylov huquqi prinsiplari, qaysi organlar saylov yo‘li bilan tashkil qilinishi, saylov o‘tkazishning muddatlari, Oliy Majlis Senati a’zolarini saylash tartibini, kimlar saylovda qatnashmasligini va Markaziy saylov komissiyasini tashkil qilish hamda vakolatlarini belgilovchi qoidalaridan iborat.³

Fuqarolarning ovoz berishi orqali saylash huquqi faqatgina milliy qonunchilik bilan emas, balkim xalqaro hujjatlarda ham o‘z aksini topganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, jumladan, “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 21-moddasida: “Har bir inson bevosita yoki erkinlik bilan saylangan vakillari vositasida o‘z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egadir”, –deb belgilab qo‘yilgan.⁴ Konstitutsiyamizning 128-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar”, – deb belgilangan. Fuqarolarning saylov huquqida ikki tushuncha ya’ni saylash va saylanish huquqlari mavjud bo‘lib, shu ikkala huquqqa ega bo‘lgan taqdirdagina saylov huquqi amalga oshgan hisoblanadi.⁵

³ Konstitutsiyaviy huquq –O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2024. 474-bet

⁴ Konstitutsiyaviy huquq –O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020.

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

Islohotlar jarayonida mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan eng ilg'or demokratik tamoyillarni hayotga tatbiq etish, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini, saylov huquqini yanada kengroq ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda saylov qonunchiligining muttasil takomillashtirib borilishi - erkin demokratik davlatga xos juda muhim, mantiqiy, adolatli va zaruriy jarayon. Mamlakatimizda erkin va adolatli saylovlar va referendumlarning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, takomillashtirish va rivojlantirish borasida boy tajriba to'plangan. Saylov tizimida ko'zga ko'rinarli islohotlarning biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2019 yil 15 fevral kuni bo'lib o'tgan navbatdagi yalpi majlisida ko'rib chiqilgan **“O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi”**ni loyihasi ekanligini ta'kidlash lozim.

Saylov o'tkazilishining asosiy prinsiplari sifatida umumiylik, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li kabilarni e'tirof etiladi. Umumiy saylov prinsipi mamlakatdagi barcha fuqarolarda kimligidan qat'iy nazar ya'ni, millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar saylov huquqidan foydalanish huquqini beradi. Teng saylov huquqi prinsipi esa har bir saylovchining bir ovozga ega ekanligini ifodalaydi. To'g'ridan to'g'risaylov huquqi asosida har bir fuqaro mahalliy davlat vakillik organlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, shuningdek, Prezidentni saylashda bevosita o'zi shaxsan ovoz berishi orqali amalga oshiriladi. Yashirin ovoz berish yo'li bilan ishtirok etish deganda fuqarolarning ovoz berishiga hech kim ta'sir qila olmasligini tushunish mumkin.

Fuqarolarning saylovda ishtirok etishi deyilganda esa, O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolarini saylov jarayonlarida hech qanday cheklovlarisiz ishtirok etish huquqi qonun bilan kafolatlanganligi misolida ko'rish mumkin (qonunda belgilangan cheklovlar bundan mustasno)⁶. Davlat hokimiyati organlariga saylanish uchun nomzodlarga belgilangan talablar mavjud. Masalan, birinchi navbatda yosh senzi hisoblansa, keyingi o'rinlarda uning muomala layoqati, sudlanganlik holati kabi cheklovlar mavjud. Ushbu cheklovlar ham inson huquqlarini takomillashishi bilan isloh etilmoqda. Xozir qonunchilikda sudlanganlik holatida islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, sudlanib, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishini keltirish mumkin.⁷

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlariga saylanishning yosh chegarasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylanish uchun 35 yoshdan kichik bo'lmagan, Oliy Majlisga saylanish uchun 25 yoshga to'lgan, Mahalliy vakillik organlariga saylanish uchun esa, 21 yoshga to'lgan fuqarolar ega hisoblanadi. Saylanish huquqida mavjud chegaralar sifatida ma'lum muddat mamlakat hududida yashagan bo'lishi, til bilishi va hokazolarni sanab o'tish mumkin. Bunday fuqarolarning saylov huquqida qo'llaniladigan shartlar, chegaralar boshqa demokratik mamlakatlar qonunlarida ham belgilangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi saylov qonunchiligini takomillashtirishga va saylovlarni

⁶ O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi “Adolat” 2019

⁷ Konstitutsiyaviy huquq –O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020

yanada demokratlashtirishga olib keldi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 –yil 22 –dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida to'xtalib, — Bu borada qabul qilingan oltita qonun va bir qator qonunosti hujjatlari, afsuski, haligacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmagan. Shu sababli xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim"⁸ –deb ta'kidlagan edi. Olib borilgan saylov islohotlari saylov kodeksini shakllantirdi. Bugun jahonda ikki yuzga yaqin davlatlar bor. Lekin xalqaro norma va standartlar asosida ishlab chiqilib, loyihasi keng jamoatchilik, ta'bir joiz bo'lsa, saylov qonunchiligi borasida "qilni qirq yoradigan" xalqaro ekspertlar tomonidan batafsil muhokama qilinib, umume'tirof etilgan xalqaro saylov standartlariga mos, puxta, ixcham va yaxlit shaklda qabul qilingan bunday mukammal Kodeks yaratish sanoqli mamlakatlargagina nasib etgan.⁹

Vanihiyat, saylovlarning turli xil asoslarga ko'ra, bir qancha ko'rinishlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Saylovlar **to'g'ri** va **egri saylov**larga bo'linadi.

To'g'ri (bevosita) saylov yo'li bilan fuqarolar saylov masalasini o'zlari hal etishadi, ya'ni fuqarolarning saylanadigan organ yoki saylanadigan mansabga bevosita saylashlari yoki saylanishlarini anglatadi. Ushbu usul bilan ko'pincha parlamentlarning quyi yoki yagona palatasi, prezidentlik respublikalarida va aralash respublikalarda esa prezident saylanadi.

Egri saylovda esa saylov masalasi fuqarolar tomonidan bevosita emas, balki ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar, masalan, deputatlar yoki saylovchilar kollegiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Egri saylovlar ikki, uch va ko'plab bosqichlardan iborat bolishi mumkin.

Masalan, Fransiya va O'zbekistonning Senati (parlamentning yuqori palatasi) yoki AQShda prezidentning saylanishi.

Bundan tashqari, saylovlarning **umummilliy, regional (hududiy), mahalliy (munitsipalitet) saylovlar** kabi ko'rinishlari mavjud.

Umummilliy saylovlar butun davlat hududida o'tkazilib, unda barcha saylovchilar ishtirok etishadi. Bunday saylovlar har qaysi demokratik davlatda o'tkaziladi. Bu saylovlarda qatnashish ba'zi mamlakatlar (Argentina, Avstraliya, Turkiya, Gretsiya, Belgiya, Braziliya) da fuqarolarning burchi hisoblansa, ba'zi mamlakatlarda esa ixtiyoriy (O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya).

Regional (hududiy) saylovlar esa ma'lum bir hududiy birliklar doirasida amalga oshiriladi. Bunda ma'lum hudud doirasidagi masa-lalar hal qilinadi. Masalan, AQShda shahar meri yoki shtat gubernato-rini saylash bunga misol bo'la oladi.

Mahalliy (munitsipalitet) saylovlar (ba'zan ularni ma'muriy saylovlar ham deb atashadi) mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy saylovlarning maxsus nomlari mavjud. Masalan, Fransiya mahalliy saylovlarni kantonal saylovlar deb atashadi, ya'ni bunda saylov okruglari bo'lib kantonlar xizmat qiladi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 –yil 22 –dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi

⁹ <https://saylov.uz/public/oz/article/saylovlar-sohasidagi-islohotlarning-yangi-davri>

Parlamentga bo'ladigan saylovlarda uchraydigan asosiy saylovlarga navbatdagi va navbatdan tashqari saylovlarga bo'linadi. Navbatdagi saylovlar qonunda belgilangan aniq muddatda yohud prezident yoki parlamentning vakolat muddatitugashi bilan tayinlanadi.

Navbatdan tashqari saylovlar esa parlament yoki palata muddatdan oldin tarqatib yuborilganda yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlaganda o'tkaziladi.

Saylov deganda odatda biror-bir organni shakllantirish, mansabdor shaxsning lavozimiga kirishi uchun vakolat berishdagi ovoz berish tushuniladi. Bulardan tashqari, saylovlar mamlakatdagi partiyalarning saylovda ishtirokiga qarab ko'p partiyaviylik, ikki partiyaviylik yoki bir partiyaviylik asosida o'tkaziladigan saylovlar ko'rinishida bo'ladi.

Saylov tizimiga ko'ra saylovlarni uch turga bo'lish mumkin. **Majoritar tizim, proporsional tizim, aralash tizim.** Majoritar tizim - eng ko'p ovoz to'plagan nomzod saylovda yutgan hisoblanadigan tizim. Proporsional tizim - har bir partiya olgan o'rinlar soni unga berilgan ovozlar soniga mutanosib bo'lgan tizim. Aralash tizim - majoritar va proporsional tizim elementlarini birlashtirgan tizim.

Qonunchilik va siyosiy tizimlar tirik organizm singari doimiy tarzda rivojlanib boradi. Jumladan, mamlakatimiz saylov tizimi va qonunchiligi ham muntazam takomillashib bormoqda. Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, endilikda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlar aralash saylov tizimi bo'yicha o'tkaziladi.

Xo'sh, jahonda o'zi qanday saylov tizimlari mavjud? Va aralash saylov tizimi deganda nima tushuniladi?

1. Majoritar saylov tizimida saylovchilar aniq bir shaxsga ovoz beradi. Saylov byulletenida deputatlik o'rni uchun kurashayotgan nomzodlar ko'rsatiladi. 2024-yilga qadar mamlakatimizda majoritar saylov tizimi amal qilgan. Bu tizimning asosiy afzalligi saylovchilar o'z vakillarini bevosita tanlash imkoniyatiga ega bo'lishidir. Majoritar tizim mahalliy vakillikni kuchaytiradi, chunki har bir nomzod o'z hududining muammolarini va ehtiyojlarini yaxshi bilishi kerak. Majoritar tizimda har bir saylov okrugi bitta vakilni saylaydi. Saylovchilar to'g'ridan-to'g'ri nomzodlarga ovoz beradilar. Eng ko'p ovoz olgan nomzod saylanadi.

2. Proporsional saylov tizimida saylovchilar siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Siyosiy partiyalar saylovda qo'lga kiritgan ovozlari foiziga mutanosib ravishda deputatlik o'rinlarini egallaydi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz beradi. Mamlakatimiz fuqarolariga dunyoning qaysi tarafida bo'lishlaridan qat'iy nazar yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Buni biz 09.07.2023 yildagi Prezidentlik saylovida ko'rishimiz mumkin. Bu imkoniyatlar fuqarolarga dunyoning qaysi tarafida bo'lishdan qat'iy nazar davlatning siyosiy boshqaruvida ishtirok etish uchun yaratilgandir.

3. Aralash saylov tizimi majoritar va proporsional saylov tizimlarining uyg'unlashuvidan hosil bo'lgan. Bu uyg'unlik parlamentning bir qismi – majoritar, boshqa bir qismi esa proporsional tizim asosida shakllanishida namoyon bo'ladi.

Avvalgi saylov tizimiga ko'ra Qonunchilik palatasining 150 nafar deputatlari majoritar saylov tizimi asosida hududlardagi saylov okruglaridan saylangan. Ya'ni, saylovchilar byulletenda ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarga ovoz bergan.

Bu yilgi saylovlarda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati, avvalgidек, majoritar saylov tizimi asosida, qolgan 75 nafar deputat yangi proporsional saylov tizimi asosida saylanadi. Unga ko'ra saylovchilar byulletenda ko'rsatilgan partiyalarga ovoz berishadi.

Aralash saylov tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- saylovchilarning har bir ovozi deputatlar saylanishida inobatga olinishini ta'minlaydi;
- siyosiy partiyalarning saylovchilar bilan aloqalari yanada mustahkamlanadi, fuqarolar siyosiy partiyalarning faoliyati bilan yaqindan tanishishni boshlashadi;
- o'z sohasining yetuk mutaxassislari saylanishi uchun qulay sharoit yaratiladi;
- bo'shab qolgan deputatlik o'rinlarini tezkor to'ldirish imkoniyatini berib, saylov xarajatlari kamayib, davlat byudjeti mablag'lari iqtisod qilinadi.

2024 yil 27-oktyabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha qonunchilik palatasiga saylovlar O'zbekiston siyosiy hayotida muhim voqea bo'lib, mamlakatning kelgusi rivojlanish yo'nalishini belgilab bermoqda. Mojaritar, proporsional va aralash saylov tizimlarining qo'llanilishi saylov jarayonining yanada demokratik va adolatli bo'lishini ta'minlamoqda.¹⁰

Xulosa

Mamlakatimiz siyosiy hayotida saylov institutining o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etmoqda, erkin va adolatli saylovlar mamlakatni demokratlashtirish va rivojlantirishning muhim shartidir. Shu sababli, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini ta'minlash, huquqiy asoslari va mexanizmlari izchil ravishda takomillashtirish demokratik islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi
3. Karimov I.A. Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi. / / O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. To'plam. - T.: «O'zbekiston», 2005. 13-bet.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. - T.: «O'zbekiston», 2004. 163-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 22 -dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi
6. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 23-iyul
7. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 20-dekabr.
8. <https://lex.uz/>
9. <https://kun.uz/>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Savlov to'g'risida // qonun / Senat tomonidan 04.09.2019 O'RQ-563-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2024-y., 03/24/1002/0936-son.